

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2022 йил 2 сон**



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. М.: Просвещение, 1981.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Ермоленко С.Я. Стилистический компонент в семантике синтаксических единиц. Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Киев, 1984.
4. Пыш В. The Structure of Modern English. М.-Л., 1965.
5. Иофик Л.Л. Проблема структуры сложного предложения в новоанглийском языке. Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Л., 1965. — 41 с.
6. Розенталь Д.Е. Синтаксис и стилистика (Сборник статей) — М., 1976
7. Сайфуллаева Р.Р. Хозирги узбек адабий тили формал — функционал талкинида кушма гап. — Т. Фан, 1993 — 308 б.
8. Хакимов М.Х. Узбек тилида матнинг прагматик талкини. Фил. Фан. докт. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. — Т., 2001

UDK 80; 81; 378

### INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOKULTURALOGIK TAHLILIDA TIL VA MADANIYATNING O'RNI

Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna  
Buxoro davlat universiteti, Ingliz tilshunosligi  
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tel.: 914486759  
Subxonova Madina Otabek qizi  
Buxoro Davlat Universiteti, II bosqich magistratura talabasi  
gmail: madinasubhonova2@gmail.com

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar, ya'ni maqol va matallar talqini va ifodasi o'rganildi. Maqollarning bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish yoki muqobil ekvivalent topish jarayonida yuzaga keladigan muammolar misollar orqali tahlil qilindi.

*Kalit so'zlar:* Maqol, matal, frazeologiya, lingvokulturalogiya, lingvokulturema, folklorshunoslik.

UDC 80; 81; 378

### THE ROLE OF CULTURE AND LANGUAGE IN THE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna  
docent of the English linguistics department of Bukhara state university, Uzbekistan  
g.mail: gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tell: +998914486758  
Subxonova Madina Otabek qizi  
Bukhara State University, the student of II year master's degree  
gmail: madinasubhonova2@gmail.com

*Annotation:* This article explores the interpretation and expression of phraseological units in English, and Uzbek. The problems encountered in the process of translating proverbs from one language to another or finding an alternative equivalent were analyzed through examples.

*Key words:* Proverbs, sayings, phraseology, linguoculturology, linguocultureme, folklore.



УДК 80; 81; 378.

## РОЛЬ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ

Гадоева Мавлюда Ибрагимовна

Бухарский государственный университет,  
доцент кафедры Английского языкознания  
gmail: gadoyevamavlyuda59gmail.com. Tel.:914486759

Субхонова Мадина Отабековна

Бухарский Государственный Университет, студентка магистратуры II курса  
gmail: madinasubhonova2@gmail.com

**Аннотация:** В статье исследуется толкование и выражение фразеологизмов английского и узбекского языков. Проблемы, возникающие в процессе перевода пословиц с одного языка на другой или поиска альтернативного эквивалента, анализировались на примерах.

**Ключевые слова:** пословицы, поговорки, фразеологизмы, лингвокультурология, лингвокультура, фольклор.

Har bir millat folklorshunosligida maqol va matallar til va madaniyat umumlashmasining yorqin ko'zgidir. Xalq so'z boyligining ushbu namunasi yillar, asrlar osha jamlangan urf-odat, qadriyat, an'analarning birligi sifatida avloddan avlodga meros tariqasida saqlanib kelmoqda. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrluk hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi to'la namoyon bo'lganidir.

Shu sababli maqollar nihoyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda foydalanibgina qolmay balki badiiy, tarixiy va ilmiy manbaalarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda ham doimiy ravishda qo'llanilib kelingan va bugungi kunda ham juda faoldir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Boshqacha qilib ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar alohida ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir vaziyat taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Ular insonlarning turli sohalardagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining umumlashmasi, barqaror va o'zgartmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelganligini ko'rsatadi.



Ko'plab olimlar Henl P. (1958), Sepir E. (1958), G.G Morian (1986), Kramsh C.(1993) madaniyat va tilning bo'g'liqligi kabi masalalarga o'z ishlarida to'xtalib o'tganlar. Bunda tashqari o'zbek adabiyoti namoyondalari asarlarida ham maqol, matal namunalarning faol ishtirokini ko'rish mumkin. Shu jumladan, G'afur G'ulom hikoyalari sarlavhalarida maqol va iboralardan foydalanilgan. Masalan, Mard maydonga chiqsin (MAT,432), O'ynashmagin arbob bilan...(MAT, 214), O'pka qilmangiz (MAT, 432), Boshi osmonda yurardi ( MAT, 405), Kaltagap ikki do'st (MAT,403), Oyoq olishiga qaraydi (MAT, 220).

Nosir Afzalning «Topdimu yo'qotmadim» (Toshkent, 2010, 7-bet) asarida "Yaxshiga yondash yomondan qoch maqoli" «Yaxshiga yondashib...» shaklida ishlatilgan va uning mazmuni yozuvchining ustozlari haqidagi fikrlariga singdirilgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyalaridan birida ishlatilgan quyidagi iborani yagona sarlavhalardan deb hisoblash mumkin: Bir ko'rgan tanish. Ushbu hikoyada asar qahramonlari Zokir O'rinovich, maktab direktori va Toshboyjon haqida hikoya qilinadi. Buni hikoyani o'qib bilish mumkin(TA1, 18-26-b.). Ikki ko'rgan bilish sarlavhasining mazmuni matnga singdirilgan. U bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish iborasining bir qismi bo'lib, uning qolgan qismi boshqa hikoya uchun sarlavha vazifasini o'tagan (TA1, 26-30-b.).

Turli tillarda maqollar millatning madaniyati, yashash tarzi, urf-odati va qarashlarini turlicha bayon ettiradi. Shu tufayli ham bir tildagi maqolning aynan ekvivalentini boshqa tilda topish juda mushkul. Shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham maqollarning o'zaro o'xshash va farqli tomonlari mavjud. Bunga albatta madaniyat va etnik kelib chiqish o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bizga ma'lumki til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq, bir-biriga o'zaro ta'sir etmay qolmaydi.

Masalan, o'zbek tilidagi **Mehmon ko'rki – dasturxon.**

maqolini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida o'zbek tilidagi "dasturxon" so'zi uchun muqobil ekvivalent topa olmaymiz. Chunki, ushbu so'z lingvokulturema – ma'lum bir xalq va millat madaniyatigagina xos bo'lgan leksik birlik sanaladi. Ushbu tarjimashunoslik muammosi tufayli ingliz tilida ushbu maqolning ma'nodoshi sifatida **"For whom he means to make an often guest, one dish shall serve; and welcome makes the rest"** dan foydalanish mumkin.

O'zbek tilidagi yana bir mashhur frazeologik birliklardan biri

**"To'ygа borsang to'yib bor,**

**To'y**

**to'ningni kiyib bor"**

Maqolida keltirilgan "to'n" so'zining ingliz tilida aniq variantini topish mushkul bo'lganligi sababli **"If someone says "There is a wedding ceremony in the clouds", then the women would soon arrive with their ladders"** dan foydalaniladi.

Ingliz xalqi tomonidan ko'p ishlatiladigan yana bir maqollardan biri bu-

**"Two blacks do not make a white "**. O'zbekcha tarjimasi - **Ikki qora qo'shilib bir oq bo'lolmaydi.** O'zbekcha variant sifatida:

**"Qora itning uyati oq itga tegar"** [56;29] dan foydalaniladi. Agar maqollarning kelib chiqish etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu maqol aynan qaysi xalq tomonidan kelib chiqqanligini aniqlay olamiz. Avval ishimizga aniqlik kiritish maqsadida maqolni grammatik tahlil qilsak.

Inglizcha **"Two blacks do not make a white "** maqolida **black** va **white** so'zlari aslida sifat so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bo'lib, shaxs yoki narsaning belgi xususiyatini ifodalaydi. Va hech qachon orqasidan –"S" ya'ni ko'plik qo'shimchasini va yakka o'zi oldidan artikl olmaydi. Bu holatda sifat otlashib insonga xos jihatlarni ko'rsatib shaxsni bildiruvchi so'z bo'lib



kelgan. Ya'ni **a black** aslida **a black man, a white- a white man** so'zlaridagi **man** so'zi tushib qolgan. Bular ingliz tilida **qora tanli va oq tanli odam** tarjimalarini beradi. Endi maqolga biroz aniqlik kirdi, ya'ni ikki qora tanli odam hech qachon bir oq tanli odamdek bo'lolmaydi. Ma'qolning tarjimasidan kelib chiqqan holda, nega ushbu maqol aynan ingliz xalq maqollari tarkibida uchrashini isbotlashga harakat qilamiz. O'tgan davrlarda nafaqat Angliya, balki boshqa Yevropa davlatlarida ham ulkan quldorlik tizimini olib borish, aynan qora tanli odamlar oq tanli, boy odamlar tomonidan qul qilib ishlatilgani barchaga ayon. O'sha davrda hech qachon oq tanli kishi bilan qora tanli kishi bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lmagan. Natijada ko'pchilik qora tanli kishilar boy va zodagon oq tanlilar tomonidan boshqarilgan. Bu o'z- o'zidan xalq ruhiga singgan. Natijada bu holatlar tilga ta'sir eta boshlagan va maqollarda o'z aksini topgan.

Demak, **"Two blacks do not make a white "** maqolida **birinchidan**, qora tanlilar qanchalik ko'p bo'lsa ham oq tanlilar qo'l ostida yashayveradi va ular hech qachon oq tanlilar kabi yasholmaydi degan ma'no yotadi. **Ikkinchidan**, barcha yomon narsalar va shaxslar har doim qora rang ostida ifodalanadi. Barcha yaxshi narsalar oq rang bilan ifodalanadi va yomon narsalar qanchalik ko'p bo'lmasin, bir yaxshini o'rnini hech qachon bosolmaydi kabi ma'nolar bor.

Maqol birinchi ta'rif orqali qadimda, ya'ni qulchilik davrida yaratilganligini ko'rsatsa, ikkinchi ta'rif orqali bugungi kundagi ifodasini beradi. Hozirda ingliz xalqi tomonidan maqolning birinchi ma'nosi tushunilmaydi. Chunki Angliya va Amerikada har bir fuqaro oq tanli yoki qora tanli bo'lishidan qat'iy nazar teng huquqqa ega fuqaro hisoblanadi.

Agar maqolning o'zbekcha varianti bilan tanishadigan bo'lsak, o'zbek tilida bu maqol hech qachon ingliz tilida berilgan birinchi ta'rifdek ma'no anglatmaydi. Chunki o'zbek xalqi tarixida oq tanli va qora tanli kabi irq'larga ajratishlar bo'lmagan. Buning natijasida o'zbek xalqi kundalik turmush tarzida ham bu so'zlarni uchratish qiyin. Ammo ikkinchi ma'nosi bilan o'zbek xalq urf odatlariga yaqinroq keladi. **"Qora itning uyati oq itga tegar"** maqoli orqali xalq bitta yomon odam yoki bitta yomon narsa ko'pchilikka zarar keltirishi mumkinligini aytadi.

Demak, maqolning **birinchi ta'rifidan** kelib chiqadigan bo'lsak **"Two blacks do not make a white"** maqoli o'zbekcha **"Qora itning uyati oq itga tegar"** maqoliga teng emas, ya'ni ular bir-biriga ekvivalent bo'lolmaydi. Ammo **ikkinchi ta'rif** orqali tahlil qilsak maqollarning ma'nosi deyarli bir xil holatni ifodalaydi.

Ingliz tilida berilgan idiomalar, frazeologik birliklar, maqol va matallarga o'zbek tilida mos ekvivalent tanlashda ikki tildagi birliklarda gramatik va semantik bo'g'liqlik va uning ifodasi hisobda olgan holda tahlil qilamiz. Va shunga ko'ra ingliz va o'zbek tillaridagi maqol va matallarni quyidagi turlarga ajrata olamiz :

Ingliz va o'zbek tillarida bir-biriga to'liq manodosh bo'la oladigan, muqobil variantiga ega frazeologik birliklar:

- There will be a celebration on our street – Bizning ko'chada ham bayram bo'ladi.
- A friend in need is a friend indeed – Yaxshi do'st yomon kunda ko'rinadi.
- Long hair and short wit – Sochi uzun aqli kalta
- Happiness takes no account of time – Baxt vaqtni kutmas
- A liar is not believed when he speaks the truth – Yolg'onchi chin deyolmas, chin desa ham el inonmas
- Patience is the best remedy for every trouble – Sabr muvaffaqiyatning kaliti



- A good wife makes a good husband – Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin

O'zbek tilida qisman ma'nosini saqlab qolgan ammo to'liq muqobiliga ega bo'lmagan frazeologik birliklar:

- Every bird likes its own nest – Bulbul chamanni sevar odam vatanni  
- Ill gotten, ill spent – Haromdan kelgan, haromga ketar  
- Give him an inch and Hell take an ell – Insof bilan qo'l uzatsang, noinsof yelkangga chiqar

- A constant guest is never welcome – Oyda kelganga oyoq, kunda kelganga tayoq  
- Beauty will buy no beef – Chiroyga non botirib yeb bo'lmas  
- We never know the worth of water till the well is dry – Oldingda oqar suvni qadri yoq

O'zbek tilida muqobil variantiga ega bo'lmagan maqol va matallar:

- Speak less but do more – Qo'ling ishda, ko'ngling Allohda bo'lsin.  
- A bad excuse is better than none – Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan musulmon dinidan

- Losers are always in the wrong – Yiqilgan kurashga to'yimas  
- Go to bed with the lamb, and rise with the lark – Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko'p turtinar

- Invention breeds invention – Bilimning bilimi yuqar, Bilimsizning nimasi yuqar  
- Hope is as cheap as despair – Umid to'rga tortar, umidsizlik go'rga  
- Be as good as a headache – Befahmning dardi o'ziga yuk

Xullas, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bilimlar va yangiliklar fikrlarimizni isbotini nazariy jihatdan asoslab bergan bo'lsa, yuqorida lingvokulturologik jihatdan o'rganilgan ayrim ingliz va o'zbek maqollari ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beradi. Ahamiyatli tomoni shundaki, har ikki tilda mavjud bo'lgan bir xil maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Buning sababi shundaki, xalqda bor narsa uning tilida ham ifodalanadi. Agar bir narsa yoki holat har ikkala tilda ham mavjud bo'lsa, maqol ko'pincha bir xil ma'no anglatadi. Agar buning aksi bo'lsa, maqollar umuman boshqacha ma'no berishi yoki bir maqolning muqobil varianti qiyoslanayotgan tilda umuman mavjud bo'lmasligi mumkin.

Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha millatga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollar bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi.

#### References:

1. Dubrovskaya, O.G. Russian and English proverbs as culturological units. Tyumen, 2002, p. 148.
2. Flavell Linda and Roger Dictionary of proverbs: and their origins / Linda and Roger Flavell. London: Kyle Cathie, 2008, 280 p.
3. Honeck, R.P. A proverb in mind: The cognitive science of proverbial wit and wisdom. Mahwah, NJ: Erlbaum, 1997, 318 p.



4. Ivanova, E.V. *Mir v anglijskikh i russkikh poslovitsakh: Uchebnoe posobie* [World in English and Russian proverbs: Textbook]. SPb.: ed. St. Petersburg State University, 2006, p. 3, 280 p.
5. Jackson, A.L. *The dynamics of proverbial sayings: discover the connections within* / by Lorenzo A. Jackson. Great Britain: Lorenzo A. Jackson, 2011, 360 p.
6. Hofstede, Geert H. *Cultures and Organizations: Software of the Mind: Inter cultural Cooperation and its importance for Survival* (by Geert, Hofstede, Gert Jan Hofstede and Michael Minkov. 3rd ed. N.Y: McGraw-Hill, 2010, p.61, 576 p.
7. Kotova, M. *Russko-slavianskii slovar' poslovits s angliiskimi sootvetstviiami* [Russian-Slavic dictionary of proverbs with their English equivalents]. Saint Petersburg, University Publ., 2000, p. 22, 360 p.
8. "Proverbs Speak Louder Than Words": *Folk Wisdom in Art, Culture, Folklore, History, Literature and Mass Media* (2008). N.Y.: Peter Lang Inc., International Academic Publishers, 2008, pp. 9–10, 357 p.

Ushbu tahlil jarayonida lingvokulturemalarga asosiy urg'u qaratildi. Chunki har bir til o'z madaniati, an'analari, xalqining hayot tarziga ko'ra turlichadir. Shu sababli millat-madaniyatga oid ayrim atamalar ham turli xil tillarda turlicha so'zlar bilan ifodalanadi. Bunday so'zlarning aynan tarjimasini boshqa tilda topish imkonsiz. Shu boisdan ham yurtimizdagi va xorijdagi qator tadqiqotchilarning izlanishlariga tayangan holda bir qator ingliz maqollarining ozbek tilidagi variantini topishga va ulardagi farqlarni organishga harakat qildik.

This analysis mainly focuses on lingvoculturalism. The reason is that each language is different according to its culture, traditions, life style, that is why some cultural terms can't be expressed in another language with the exact meaning. Therefore, based on the research of a number of foreign and Uzbek linguists, we tried to find the exact equivalent of English proverbs in Uzbek and study the differences between them.

Этот анализ в основном фокусируется на лингвокультурализме. Причина в том, что каждый язык отличается в зависимости от его культуры, традиций, образа жизни, поэтому некоторые культурные термины не могут быть выражены на другом языке с точным значением. Поэтому, основываясь на исследованиях ряда зарубежных и узбекских лингвистов, мы попытались найти точный эквивалент английских пословиц на узбекском языке и изучить различия между ними.